

ASROR SOLIJONOV

SEVGIRANG NIGOH



SHE'RLAR

• BIRINCHI •
KITORIM




16-5
168

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAAT FONDI

ASROR SOLIJONOV

SEVGIRANG NIGOH

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
GLIY VA O'RTA MAKSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--

- 4501 -

Nashr uchun mas'ul:

Nodir JONUZOQ,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
birinchi o'rinbosari*

Mas'ul muharrirlar:

Zulfiya Mo'minova,

Alisher Boymurodov

Ushbu to'plam farg'onalik shoir Asror Solijonovning yillar davomida oq qog'ozga tushirgan tuyg'ulari tajassumidir. Asrorning she'rlarini o'qir ekansiz, yangi gulzor va undagi anvoiy gullar iforini tuyasiz. Muhabbatning armonli oqshomlarida ko'ngil qushining suhbatidan bahramand bo'lasiz. Vatan yantoqlarini go'zal qiz, deb ardoqlaysiz.

Uning she'rlaridagi ohanrabo xayolingizni band etadi. Muqaddas, nafis, haroratli tuyg'ular dilingizga hamdam bo'ladi.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6473-5-0

© A.Solijonov, 2020

© "Adabiyot", 2020

"SEVGIRANG NIGOH" KITABI HAQIDA

Yosh ijodkorlarning 2018-yil Zomin seminarida ishtirok etgan yosh shoirlar orasida farg'onalik shoir Asror Solijonovning she'rlari alohida e'tirofga sazovor bo'lgan edi. O'shanga ham ikki yil bo'libdi. Bu orada uning chiqishlarini vaqtli matbuotda kuzatib bordim.

Yo'q!

Shunchaki o'yinga toldim. Bas!

Ishq umrimga bermas tolim nur.

Bu yer endi Terakmozorimas,

Yurakmozor deya atalur!

Yoki erta kelgan kuz haqida:

Mast-alast kimsaday tentidi shamol,

Mo'ysafid ruh oldi sokin tunlarim.

Tongda qumrilarim qildi arz-u hol,

Yoqavayron bo'ldi yorongullarim.

Go'yo hukmronlik ko'shkidan turib,

Tilingan yaramga sepmoqchiday tuz.

Za'faron to'shakka chordona qurib

Xotirjam va'z o'qir erta kelgan kuz.

Asror kuz faslining sokinligini mo'ysafid ruh deb atab, yorongullarning quriy boshlashini Yoqavayron bo'ldi yorongullar, deb ataydi.

Yerda yotgan kuzgi yaproqlardagi holatni quyidagicha tasvirlaydi:

*Za'faron to'shakka chordona qurib,
Xotirjam va'z o'qir erta kelgan kuz.*

Asror Solijonovning ijodiy izlanishlari o'z natijasini bera boshlagani uning turli mavzudagi she'rlarida kuzatish mumkin:

*Sevgan edim balki bemavrid,
Kuygan edim balki bemavrid,
Ko'zlarimdan terib marvarid,
Muhabbatga sig'indim, Gulnoz.*

Uning she'rlarining ko'pchiligi muhabbat mavzusida ekanligi tabiiy hol.

*Bu yer endi Terakmozormas,
Yurakmozor deya atalur!*

Shu ikki satrda shoir armonli muhabbatning g'amgin yakuni suratini bera olgan. Satrlar jazillab borib yurakka uriladi. Yodingizdan chiqmaydi. Yoddan chiqmaydigan she'rni yoza olishi shoirning darajasini, iste'dodini ko'rsatadi.

*Baribir topolmay yurakka malham,
Ismimni shivirlab aytasiz shunda.*

*Dunyoyingiz aylab forig' kulfatdan
Menga xat yozasiz bir kuni tunda.*

Asror otasi haqidagi bir she'rda:

*O'g'im, bisyor uxlab qo'yildingizmi,
G'aflat uyqusida qolmang bu qadar.
Onangiz sog'inib ko'zlaringizni,
O'ksinar, siz esa bunda bexabar"? -*

deydi. She'r oxirida esa ushbu satrlarni o'qiydiz:

*Shafaq qozonidan sut toshar asta -
Quyosh kun sahniga qo'yadi qadam.
Uyg'andim, yengimga ko'zyoshin arta,
Axir, derazamni chertgandi dadam...*

Tong otishini har bir shoir o'zicha ta'rifiyladi. Asror Solijonov o'ziga xos chizgilar bilan:

Shafaq qozonidan sut toshar asta, -

deya, o'quvchining tasavvurida oppoq tong otayotganini mehr bilan ifodalaydi.

Masalan, men bu topilmani boshqa bi-ror-bir shoirida uchratmaganman.

"Vatan" she'rda:

*Yantog'ingni quchdim, qizdek yantog'ingni,
Ko'ksimga ber, shabbodangni, titrog'ingni,
Bog'imdagi qarag'ayni otim dedim,
Muhabbatdan dil entikib Vatan dedim.*

Eng muhimi, shoir uchun vatanparvarlikdir,
yurtning yantog'ini ham go'zal qizni suygandek
suyub erkalamoqdir. Shoir uchun muhimi ishq-
da sobitlik, so'z mulkiga sodiqlikdir.

Men yosh do'stinga qattiq talablar qo'ya ola-
man. Chunki unda katta iqtidorni ko'rdim. Hali
juda-juda ko'p o'qing. Klassik adabiyotimiz xazi-
nasi qayta-qayta bosh uring. Bir kun ham o'qish-
dan to'xtamang.

Ko'nglingiz to'lmagan ijod namunalaringiz-
ni e'lon qilishga shoshmang. Munis onamiz -
muqaddas Vatanimizga farzandlik mehringizni
she'rlaringizda izhor etish baxti, imkoniyatini
qo'ldan boy bermang.

Zulfiya MO'MINOVA,
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, shoir.*

Astor SOLJONOV

6

BEQIYOS QUNT ILA MOHIR MUSAHHIH...

Beqiyos qunt ila mohir Musahhih
Umrim kitobiga berarkan tartib.
Dovotga patqalam soldi-yu, daqiq,
Bir go'zal imloni tashladi artib.

Taqdiri azal bu – Yaratganga xos,
Ranj-u da'voyim yo'q tuproqqa insam.
Ammo bir hikmatni angladim bexos,
O'shal bitilmagan imloyim Sensan!



CHORRAHA

Terakmozor. Gavjum chorraha,
Bozor yo'li, qaynar olomon.
Manglayiga kaft qo'yib shahar,
Tin olmoqqa topolmas imkon.

Bunda hayot avj olar tinmay,
(Har kimning o'z manzili chorlar).
Lek kimnidir intiq kutganday,
Sarg'ayadi svetoforlar.

Mening qayga tutashdir yo'lim?
Nechun ruhim tortmas osuda?
Bir soniya turib qoldi jim
Xotiralar chorrahasida...

...G'oyat go'zal eding... ikki yon,
Ketdik sochib ishq siniqlarin.
Xayollarim qaqshatar yomon -
Mashinalar chinqiriqlari...

Adashtirdi ikkimizni ham
Bu to'polon dunyo so'qmog'i.
Endi ko'nglim bilan barobar,
O'zimni ham mushkul topmog'im..

Yo'q!

Shunchaki o'yg'a toldim. Bas!
Ishq umringa bermas tolim nur.
Bu yer endi Terakmozor emas,
Yurakmozor deya atalur!

SARATON

Saraton aksirar tuproqzor yo'lda,
Hasadgo'y xotindek bug'lanar asfalt.
Oyoqlar chalkashib - bosolmay ildam,
Entikkan epkinlar sang'iydi karaxt.

Boshidan suv quyar suv tegirmonlar,
Daraxtlar ostiga qochar ko'lanka.
Sohilda to'xtagan kemadek shomlar,
Quyosh solib turar olamga langar...

Qushlar nafas rostlab olar sezdirmay,
Tush kabi jimirlar bu harir kunlar.
Nomahram yigitdan uyalgan qizday
Yaprog'in qayirar namozshomgullar...

YO'QLOV

Yulduzlar suvrati o'chmasdan hali,
Quyosh kun sahniga qo'ymasdan qadam.
Sahar shabnamga yuz chayar mahali,
Ohista oynamni chertadi dadam:

"O'g'lim, bisyor uxlab qo'ymadingizmi,
G'aflat og'ushida qolmang bu qadar.
Onangiz sog'inib ko'zlaringizni,
O'ksinar, siz esa bunda bexabar!"

Yashamoq imtihon, goh qilar o'yin,
Inson hayotiga sinov berar zeb.
Boring, akangizdan hol so'rab qo'ying,
Tinkasi quridi tirikchilik deb!

Singillar qo'yindan uchgan qush kabi,
Bir kaft mehr tuting, qanotin silab.
Bug'doyzorni kechib boring ular-chun,
Jonin to'sharga shay bir diydor tilab".

Dada, - deyman, - dada, sog'indim yomon,
Kaftingizni bering, boshimda tursin!
Meni gumroh qilgan, rangimni somon -
Devona ko'ngillik, shoirlik qursin!

Shafaq qozonidan sut toshar asta,
Quyosh kun sahniga qo'yadi qadam.
Uyg'ondim, yengimga ko'zyoshim arta,
Axir, derazamni chertgandi dadam...

HALI YOZ KAFTIDA ERIR QO'RG'OSHIN...

Hali yoz kaftida erir qo'rg'oshin -
Sumbula bog'larga sepin yozgan kez.
Muttaham o'g'riday devorim oshib,
Mening chorbog'imga kirdi xazonrez!

Mast-alast kimsaday tentidi shamol,
Mo'ysafid ruh oldi sokin tunlarim.
Tongda qumrilarim qildi arzi-hol,
Yoqavayron boqdi yorongullarim.

Go'yo hukmronlik ko'shkidan turib,
Tillingan yaramga sepmoqchiday tuz,
Za'faron to'shakka chordona qurib
Xotirjam va'z o'qir erta kelgan kuz!

Shundoq ko'z oldimda ko'nglini chog'lar,
Qanday bedodlik bu? Axir to'g'rimi?
Ko'rib turibman-u, quvolmay dog'man
Bog'imda izg'igan yuzsiz o'g'rini!

KETMASAYDING...

Ketmasayding...
 Gulgun bahor kulgan payti,
 Binafshalar qad ko'targan ma'voyimdan.
 Qulog'ingga ishq haqida aytib-aytib,
 Hulvolarga ko'msam edi dunyoyimda...

Qolsang edi, qolmasmidi dilda hech g'am,
 Hijronlarni quvarmidlik quyun bo'lib.
 Yo erkalab quchganingda, nimpushtirang
 Bilaklaring qolsa edi tugun bo'lib.

Yiqilsaydim...
 Ishq yiqitsa mayli edi,
 Sochlaringga berkinsaydim anduhlardan.
 Quchog'imga bir gul kabi berkitsaydim –
 Tohir bo'lib olib ketsam sandiqlarda...

Kulsang edi...
 Kulguchlaring ko'rib kulsam.
 Bardoshlaring bitsa otash nafaslarda.
 Hech bo'lmasa tushlarimda seni ko'rsam,
 Kipriklarim aylansaydi qafaslarga...

Ketmasayding, g'amlar to'ksak daryolarga
 Qani edi, alvidolar aytmasaydik.
 Oqqush bo'lib uchsak o'zga dunyolarga,

Hijroni bor ma'volarga
 qaytmasaydik...
 Qolsang edi...
 Bolg'a bilan ...

Bolg'a bilan oyga mix ursam,
 Cho'mich solsam bahri ummonga.
 Qoyalarni yelkamda sursam
 Va quyoshni otsam osmonga.

Ko'ylagimdek yoysam kunduzni,
 Choponimga tunni qamasam.
 Urug' kabi sochsam yulduzni,
 Daralarda olov qalasam...

Qamchin bo'lib silkinsa daryo,
 Bo'ronlarni kaftimda tutsam.
 Men bariga tayyorman, ammo
 Qani endi sizni unutsam!

BIR KUNI

Soyga do'nar bir kun qayta yomg'ir, do'l,
Ummonlarni topar daryo to'lqini.
Yer belidan belbog' bo'lib o'tgan yo'l,
Bizni uchrashtirar yo'llar bir kuni.

Yulduz so'nar samovotning qa'rida,
Lek ko'ngilga nur ulashgay yolg'ini.
Hislarimni ogoh etib baridan,
Tilga kirar o'ng-u so'llar bir kuni.

Hali hijron otliq zulmat chekingay,
Boshimizga quyosh qo'yar ilkini.
Sochingizga qo'l urarman epkinday,
Ko'zlarimiz baxtdan kular bir kuni.

Talpinadi, intiladi xasta jon,
Toki Tangri olmas ekan mulkini.
So'zlarimni eslab yuring, yorijon,
Bandasini Xudo qo'llar bir kuni.

TUN. ZULMATNI KESAR LAYLAKQOR...

Tun. Zulmatni kesar laylakqor,
Yog'du sochar chiroqlar horg'in.
Devonadek daydib tonggacha,
Kimni izlab yurar izg'irin.

Zardalarin ayamaydi qish,
Halovatsiz to'zg'iydi olam.
Muzga o'rar jon-u taningni,
Alam! Alam, birgina alam!

Changib yotgan samo qa'ridan
Yog'iladi millionta uchqun.
Sog'inchlarning olis va notinch
Yo'llarida yaxlab borar mung...

Ko'zlarini yumar Moskva,
So'nib borar shahar shovqini.
Jim eshitib yotaverasan
Yuragingning dukurlarini...

Azob bormi bundan ortiqroq,
Yo'llarim yax - qahraton zolim!
Quchog'imni nurga to'ldirib,
Hlorolmasman senga, bahorim!

TO'KKAN KO'ZYOSHLARING...

To'kkan ko'zyoshlaring dunyoni bosdi,
Yuragim chayqaldi Nuh to'fonida.
Hijron sirtmog'iga umrimni osdim
Eng so'nggi visolning so'nggi onidan.

Telba taqdiralarmiz biz asli, erkam,
Jonni nobud qilgan ikki isyonimiz.
Ayt, nechun g'amlarga berilmas barham,
Yo'qsa, bu dunyoda nega omonimiz?!

IQBOL YUSUFGA

So'nggi qatra qonim bor ekan,
Men janglarda o'lmayman dedim.
Toki bunda mendan qolguvchi
Dilbandlarim qolmasin yetim!

Taassuf! Zulmat qorong'usidan
So'zlar qayda meni uyg'otgan?
Axir qatra hayratim bilan
Qanday sig'ay adabiyotga?!

MUNAJJIM

Tinmay saboq olib ilmi nujumdan,
Osmon ko'nglingizga usturlob tutdim.
Ixtiyorim berib o'zni o'zimdan,
Telba munajjimdek butkul unutdim.

Tilslilar yog'dirib chorladi samo,
Olamlar boqdilar ming bitta ko'zdek.
Sizga qo'l uzatsam yetgudek, ammo
Beqaror edingiz sayyor yulduzdek...

Harbir o'z so'zin aytdi koinot,
Bomon yo'llaridek changidi taqdir.
Zor-u zabar bo'ldi xayol-u hayot,
Kashf etib ulgurmay boy berdim axir...

O', dillim istagan o'zga olam yo'q,
Endi zulmot tun bermaydi to'zim.
Sani sog'inmoqdan o'zga choram yo'q,
Manglayimga bitmas mening yulduzim...

YESENINCHA

Xayr, Moskov, nasroniy o'lka,
Oq qayinlar, bunda xush qoling.
Nigoh qadab adog'siz yo'lga,
Yurtda meni kutar iqbolim,
Xayr, Moskov, nasroniy o'lka.

Ranjimagil faqat ko'p mendan,
Neva oqsin xotirjam va tinch.
Qaytarmagil endi yo'limdan,
Oq yo'l tila, sendan bir o'tinch,
Ranjimagil faqat ko'p mendan!

Axir netay. Men bir savdoyi,
Chorlar tinmay dildor kulgusi.
Garchi xushro'y. Hurlaring moviy -
Ko'zlarida shimol yog'dusi
Lekin netay men bir savdoyi.

... Siren bo'yin tuyar dimog'im,
Yurtda shafaq belangan oqqa.
Agar seni sog'inar chog'im,
Boqib olis kun botar yoqqa -
Siren bo'yin tuyar dimog'im...



OQSHOM NURAR - TUN YARIM...

Oqshom nurar - tun yarim,
Kim ovloq qoralagan?
Yolg'izoyoq yo'l yotar -
Yong'oqzor oralagan.

Shivirlagan shamolmi
Yoki qushlar titrog'i?
Kim? - Ko'kdan boqar hayron
Oy - osmonning so'rog'i.

Sukunatni qo'zg'agan
Kim? (Toshlar emasmilar?)
Bunda bazm qilmoqda
Yoki jin-alvastilar.

Tush ko'radi maysalar,
Uyg'onmagan borliq jim.
Tun ham mudroq bosganda,
Kim bo'ldi u, axir kim?!

Hech kim bilmas, anglolmas,
Bunda qandoq sir yashar.
Oy ro'molin yopinib,
Ikki soya birlashar.

HIJRON

Qonimda jon qadar oqqan tikansan,
Qaylardanam menga boqqan ekansan?!

Yoinki edingmi tashna qonimga,
Qachon poyon bitar intiqomingga?!

Yurakni sel qilding, sel-selob qilding,
Har bir soniyamni ming azob qilding!

Senga bir savolim – javobing bormi?
Vujudingda zarra insofing bormi?

Endi xushnudmisan, dunyoyim vayron,
Ko'ngli arzonlarga borgan, jon hijron!!!



XUSHXABAR

Bir kun bir xushxabar tarqar to'satdan,
Tornalar keladi alyorin ayta.
Kimdir shivirlaydi quloqlaringa:

"Uyg'oning, dunyoga keldingiz qayta!"

Ko'zlarim ochaman, bu ne ajib tong?
Qalbmni qitiqlar qanday iliq nur?
Nahot g'ussalardan ozoddir jahon,
O, hamma baxtiyor, o, hamma masrur!

Kuldek to'zg'ib ketar chirkin umrlar,
Shayton a'yonlari topmas muddao.
Saodat yog'dirib odamiyatga,
Arshdan kulib boqar hotamtoy Xudo!

Unda o'lim fasli bo'lmagay sira,
Bevaqt uzilmagay na yaproq, na xas.
Manfur jaholatdan olib xavotir,
Dunyolar yelkadan olmagay nafas.

Xiyonat urchigan xilvatlar yongay,
Zulumot bog'lari ochmagay quchoq.
Bilror kim manfaat kutib sotmagay
Va do'stlar yelkasi ko'rmagay pichoq.

Sevgi – olam ahlin chorlagan yog'du,
Tillarda qo'shiqqa aylanan baytim!
Baxt izlab Tohirilar sandiqda oqmas,
Majnunlar sahrodan kelaarlar qaytib!

Bir kun bir xushxabar kelar to'satdan,
Laylaklar qaytadi alyorin ayta,
Maysalar shivirlar quloqlarimga:
"Uyg'oning, dunyoga keldingiz qayta!"

Ungacha ne dovon oshmoq muqarrar,
Mayli, jon-u tanim yonsin gulxanda!
Bir kun bir xushxabar keladi ko'kdan,
Xotirjam jon bersam bo'lar o'shanda.



TAVSIYA

Yiqildingmi? Qaddingni rostla,
Yuzingni yuv, ust-boshingni qoq!
Ukani, senga yarashmas sira
Yosh boladek yig'lab o'tirmoq!

Ko'rgan, umrin yo'lkalarida
Hexos toyib yiqilgan qancha?
Hezoriilik qilib ataydan,
Oyoq chalar hayot – tirrancha.

Qo'rqma, ravon yo'llar ham bordir,
Taqdiringga berib qo'yma tan!
Yiqildingmi qaddingni rostla,
Yiqilmasang bo'ldi yuztuban!



DARDGA YOR, BAXTGA ZOR BO'LGAN LAHZADA...

Dardga yor, baxtga zor bo'lgan lahzada,
Shabnamlar sirg'alib kiprigingizdan,
Butun vujudingiz kelsa larzaga,
Tasalli bermasa bir shirin so'z ham,
Avval uzoq boqib suvratlarimga
Bexos uyg'ongandek cho'chib uyqudan,
Shular sababchidek jamiyki g'amga,
O'tda kuydirsangiz bezib tuyg'udan,
Alam alangasi mazax qilganday
Tillarini ko'rsatib yonganda lov-lov,
Qo'yomoqchi bo'lasiz hammasiga chek,
Go'yo ustingizdan kulguday birov,
Ammo tushlaringiz ro'yobin kutib,
Har tong xo'rsingancha jo'naysiz ishga
Va bu og'riqlarning yukin unutib,
Ko'milmoqlik istab ming xil tashvishga,
Joningizga burov solasiz tinmay,
So'lg'in qabog'ingiz o'ksinsa darddan,
Siz deb dunyosidan kechmoq uchun shay,
Umid xam qilmasdan biror-bir marddan,
Faqat o'ksinasiz ayblab taqdirni,
Boringizni tortib olgan ishqqa ham,
La'natlar o'qiysiz titib xotirni,
Baribir topolmay yurakka malham,
Ismimni shivirlab aytasiz shunda,

Dunyoyingiz forig' aylab kulfatdan,
Menga xat yozasiz bir kuni tunda,
Akar ham qolmasdan qayg'u, nafratdan,
Anglaysiz tug'yonim sababi nega,
Dardga zor, baxtga yor emasligimni,
Mening ham yuragim axir, beega,
Ilaqsiz dunyoda bor emasligimni,
His etib yayraysiz, yuribman omon,
Umrim kechayotir siz turgan ruhda,
Sizning anduhingiz ekan bardavom,
Mening she'rlaringiz qo'yilmas nuqta.

FARMON BERILDIMI - IJRO MUQARRAR...

Farmon berildimi - ijro muqarrar,
O'zi izlab kelar seni jazoying.

Mana, yurak o'yib, qiymalab jigar,
Umrimni yemirar vijdon azobi.

Qancha gunoh bilan yonma-yon o'sdim,
Bilmi pokloimadim hanuz g'ubordan.
Ita'zan so'rab qo'yib she'rimdan taskin,
Uyalib ketaman Parvardigordan!

QO'SHIQ

Oy kuldimi qoshingizda, kun kuldi,
Ko'kdan turib qay yulduzlar qoqdi im?
Ayrilishdik – jon rishtasi uzildi,
Ayting, men yo'q baxt kuldimi, sevgilim?

Soylar o'par majnuntollar kokilin,
Dard yemirdi yuragimning sohilin.
Azob berib to'ymadingiz oxiri,
Ayting, men yo'q baxt kuldimi, sevgilim?

Qoya bo'lib shamollardan asrasam,
Sizni turfa balolardan asrasam.
Sitamlardan asrasam-u, siz esa...
Ayting, men yo'q baxt kuldimi, sevgilim?

Ishq shahrida malikai Siz davron,
Ming oshiqqa bering, mayli, ming imkon.
Lek unutmang, o'lgani yo'q Sulaymon,
Ayting, men yo'q baxt kuldimi, sevgilim?

SOG'INCH

Mash'aladek tutib yodingni,
Shivirlasam sening otingni.
Ko'z oldimdan o'taverding sen,
O'tli sog'inch tutaverding sen.

O ko'hligim, qora ko'zligim,
Bag'ri otash, oftob yuzligim.
Hijroningda yonib toldim-ku,
Dilga ming bir yamoq soldim-ku.

Men kim axir, o'zing yo'q, erkam,
Sulton bilding gado bo'lsam ham,
Ollislardan "Sog'indim" degan
Zaboningdan bir o'pay, Vatan!



QUSHCHAM, SENDA IXTIYOR...

Qushcham, senda ixtiyor,
Uch istaging yo'lidan.
Hazir bo'l, faqat tushma
Yomonlarning qo'liga.

Bunda yovuz qo'llar bor,
Don sepsalar bo'ylama.
Sen g'aribsan, o'zgalar
Sendan zo'r deb o'ylama.

Daydib esgan shamollar
Qayirmasin qanoting.
Go'zal bo'lsin gul ichra
Mendan keyin hayoting.

Qushcham, qunush tortmagin,
Bu ayozlar o'tkinchi.
Koshki, bilmasam ekan
Yuragingning o'kinchin.

Atay quvdim bog'imdan,
O'z umringni et xushta'm.
Men kuzakdek sovrildim,
Sen bahorga yet qushcham!

KO'RING, VAQT G'ILDIRAK...

Ko'ring, vaqt g'ildirak, g'ildirayverar,
Faollar almashar, bahor, yoz-u qish.
Faqat sitam berar, to'kis g'am berar,
Ho'lak nima berar meni sog'inish?

Istarmanki, ortiq ismimni tutmang,
Meni eslatmasin Qo'qon shamoli.
Men yomon odamman, shuni unutmang,
Kun kelar, ishqingiz tutgay uvoli...

Yetar! Ko'z yoshingiz yomg'iri tinsin,
Ostonangiz oshib bo'ylamasin dard.
Qahratonlar qahri menga yog'ilsin,
Lekin siz baxtiyor bo'lmog'ingiz shart!

O'zgan yor eting... Ha, aynan shunday,
Hodavo ko'nglinga izhorlar ayt mang.
Meni qo'yavering, hamroh bor - may,
Bog'inchdan o'lsam ham yonimga qaytmang.

SAROB

Borar yerim ayonmas hali,
Ko'zda mavhum qalqiydi ertam.
Varrak quvgan bola singari
Yuguraman qushlar ortidan.

Qanotim yo'q, lekin uchaman,
Shamollarga bitib qasida.
So'ng nogahon qulab tushaman
Ko'zlaringning ostonasida!

Mana, mening borar manzilim,
Mana, behol uzataman qo'l.
Odimlayman, ammo, sevgilim,
Yuragingga olib bormas yo'li!

Nechun urib tushirding ko'kdan?..

QACHON?

Qachon zulmat bitar, qachon tong otar,
Qachon azoblarim topar nihoya?

Qachon kulgularing ko'nglim yoritlar,
Qachon g'am daraxti tashlamas soya?

Qachon qunush tortgan musichalarday,

Qachon sovuq qotgan qalblar uchrashar?

Qachon baxtdan masrur yurak chalar nay,

Qachon yaqin borgum ko'zlaring qadar?

Qachon ko'klam yanglig' yashnar muhabbat,

Qachon hijron isi kelmas bog'lardan?

Qachon bolta urib armonlarga shart,

Qachon orzularga qanot bog'larman?

Qachon jonlanadi umidlar xoki,

Qachon qayg'u qasri etilgay vayron?

Qachon malham bo'lar visoling yoki

Qachon o'rtamaydi o'tmish hech qachon?!

MARHABO, KELINGIZ...

Marhabo! Kelingiz! Ko'nglim lang ochiq,
lovdirab boqmang dil darchalaridan.
Poyingizga qadrim beraymi sochib,
tungan ko'zguyingiz parchalariday?!

Muborak!

Xush ko'rdik, xushqomat xonim,
tomonada turmang bunday omonat!
Mana, bu sevgimdir, buni jonim...
tatanangiz, soting - qiling daromad!

Mayli, har ne qiling sizga kelsa o'ng,
turinga chang soling - xotiringiz jam.
Kulib ko'zim o'ying xiyonatdan so'ng,
tuffingizning uzun poshnasi bilan!

Zulflingizdek yozib yuring ko'nglingiz,
yolg'oningiz huzur baxsh etsin sizga.
Ko'ksimga tap tortmay soling chuqur iz,
qalbiroq rang berib tirnog'ingizga.

Ammo bilarmisiz, nedan ko'nglim to'q,
tanga titroq kirmas aytsam ismingiz.
Makringizdan dilim dog'laganim yo'q,
heh kunlik mehmonsiz, boshqa hech kimsiz!

DARAXT SHOVULLAYDI...

Daraxt shovullaydi, oy lovullaydi,
Yulduz mo'ralaydi yirtib samoni.
Yurak huvillaydi, kuzak tullaydi,
Sarg'ayar dunyoning to'rtta tomoni.

Senga qo'l uzatsam, yetmaydi qo'lim,
Qaydasan, jonimga orombaxsh sezgi?
Shamolda sovrildim, o'tda qovrildim,
Sen yo'q ko'z yoshlarga evrildim, Sevgi.

Yurak huvillaydi...



BILAMAN, QACHONDIR MENI SEVGANSIZ...

Bilaman, qachondir meni sevgansiz,
Jattirob chekkansiz aytib ismimni.
Go'zal tuyg'ulardan kechgan go'zal qiz,
Mehr'ingizdan masrur etdingiz kimni,
Men g'amlar kechganda qayda edingiz?!

Asto ginam yo'qdir, bo'lingiz omon,
Manglayda ne bo'lsa, shuni ko'raman.
Ikki dunyo sizni demasman yomon –
Ko'ngil bozorida o'zim g'o'raman,
Ushlarning savdosi pishmas hech qachon.



MUNAVVAR

Munavvar, ko'zimdan toshar hasratim,
Munavvar, ko'ksimda o'rmalar armon.
Munavvar tonglarga meni asrading,
Munavvar, men seni ranjitdim yomon.

Kechir, xatoliklar ko'p o'tdi bizdan,
Balki muhabbatdan to'q edi ko'nglim.
Senga she'rilar bitdim turib yulduzdan,
Suv kechib yoningga bora olmadim.

Ehtimol, daryolar oqdi teskari,
Ehtimol, o'zim ham quladim ko'kdan.
Netay, dilni sog'inch o'rtar mahali,
Mudom kulgularing sog'inaversam.

Hech poyon bilmadi hijron kitobi,
Umrin varoqlanib topmoqda yakun.
Yoding asrab keldim – iliq, oftobiy
Kunlarni ko'ksimda uyg'otmoq uchun!

Bo'g'zimni yorolmay bir so'z to'lg'onar,
Sen yo'qsan, qay toshga bosh ursin yurak?
Yoxud anglagansan allaqachonlar,
Sho'irga visolmas, faqat dard kerak!
Munavvar, dilimdan toshar hasratim...

PUSHAYMON

Oltob kulmas, oy bo'zarmas ko'kdaman,
Yo'q, ko'kdamas, ishq poyida cho'kdaman.
Yoding malham, kim bo'lardim yo'qsa man...
O'yin qildim yurakdagi dardingni,
Ketganingdan keyin bildim qadringni!

Shivirlashib yellar aytdi: "Sevamiz",
Ko'zyosh to'kib sellar aytdi: "Sevamiz".
Harcha yongan dillar aytdi: "Sevamiz",
Ashklar yuvdi kiprikdagi gardingni,
Ketganingdan keyin bildim qadringni!

Pushaymon ne? Arshga yetmaydi ohim,
Tangri shohid, iztirobim - guvohim...
Qayga borsam peshvoz chiqar gunohim...
Qancha gunoh qilsam - egdi qadringni,
Ketganingdan keyin bildim qadringni!

Dardim aytsam, kuy taraldi qamishdan:
"Xatolarim har qadam, har qarichda..."
Men bir odam, sen ko'kdagi farishta...
Qilamat dedi: "Bilib yuring haddingni!"
Ketganingdan keyin bildim qadringni!

VATAN

Yantog'ingni quchdim, qizdek yantog'ingni,
Ko'ksimga ber, shabbodangni, titrog'ingni.
Muqaddas bir kaftdek o'pdim yaprog'ingni,
Bog'imdagi qarag'ayni otam dedim,
Muhabbatdan dil entikib Vatan dedim.

Tik tursam ham tuprog'ingni o'par soyam,
Asli ishqdir men suyangani ulug' qoyam.
Ko'zim ochib ko'rganimsan, pokdil doyam,
Doyalarim qaldirg'ochlar - otin dedim,
Muhabbatdan dil entikib Vatan dedim.

Kimlar ketsa ko'ngil uzib qo'rg'oningdan,
Qaynoq mehr tutma qora qumg'oningdan!
Ayirmasin beminnat tuz, yovg'oningdan,
Egnimdagi xoh bo'z bo'lsin, satin dedim,
Muhabbatdan dil entikib Vatan dedim.

She'r tug'ilsa, dildan tilga ko'char titroq -
Noming aytsam ming bir kalomdan totloq...
Ey, bobolar xokin quchgan momo tuproq
Fido bo'lsin senga jonim va tan dedim,
Muhabbatdan dil entikib Vatan dedim.

TUN SHAMOLI ERINCHOQ IZG'IR...

Tun shamoli erinchoq izg'ir,
Hilviragan xilvatlarda jim.
Yig'laydilar daraxtlar unsiz,
Oy bo'yniga tashlab qo'llarin.

Yer-u ko'kda ulkan ko'lanka –
Tun charx urar qanotin yozib.
Sukunatni yirtib qochar goh,
Alahsigan qushlar ovozi.

Tongga dovur sokin bosh chayqab,
Varaqlashar dard kitobini.
Birov bilmas, hech kim tushunmas
Daraxtlarning iztirobini.



MING YIL TO'ZG'IB YOTDI...

Ming yil to'zg'ib yotdi sahroda tanim,
Ming yil afsun bitdi vaqt qulog'imga..
Ko'ksimda yantoqlar otdilar ildiz,
Chayonlar in qurdi bosh chanog'imga...

Lablarim qaqradi, qaqshadi ruhim,
Nahot unut bo'ldim shamoldek beiz?
Karvonlar o'tdilar toptab xokimni,
Ingradim suv bering, ey mehri aziz!

Meni tinglamadi birorta kimsa,
Paqat quzg'unlarning o'tkir nigohi,
Jonim og'ritardi tig'dek qadalib –
Shuncha og'irmidi mening gunohim?

Nilhoyat, yuzimni o'pdi tomchilar,
Chekindi ming yillik azobkash uyqu.
Entikdim, birgina bardoshim uchun
Obi rahmat berding, Tangrim – Alhamdu!

Vujudimni oldi bir ajib rohat,
Har bitta sezgimga yugurdi orom.
Meni tashlamading yo'qlik qa'riga,
Shukurlar! Shukurlar, Parvardigoro!

ONA

Quyoshdek balqdim, oy kabi botdim,
Goh g'amlar selida daryodek oqdim.
Ilaxtrang o'ylaringa andarmon bo'lib,
Dardrang kulguyingga beparvo boqdim.

Mudom aldab keldi ishonganlarim,
Nishin qayrab keldi nishondorlarim.
Kimmiki ardoqlab ko'tarsam ko'kka,
Osmonimga ega chiqdi sorlarim.

Mangu ko'nglim qolib bahor-u qishdan,
Uzildi hayratga ulangan rishtam.
Umrimga chang solib ketdilar bir-bir,
Tanho o'zing qolding, ma'sum farishtam.

Bildimki, yoqamga yeng kelmas dunyo,
Ona, quchog'ingga teng kelmas dunyo.
Dilga og'riq tutar, og'ir tosh qalar,
Sen o'ksingan dunyo, sen kulmas dunyo.

Munisim, ko'zingdan oqqan jolangman,
O'z dardin kuylagan yomon bolangman.
Duo qil, dilingdan shomlarni hayday,
Kunlarni yelkalab surib boray man!

ILTIFO

Zulmat kulgan tomonlarga yuzim burma,
Qo'ling bosgin yuraginga Parvardigor.
Inson bo'lay! Isyonlarga toqatim yo'q –
Vujudimdan shaytonlarni haydab yubor!

O'n sakkiz ming olam shohi o'zing, shaksiz,
Bir yo'l ko'rsat, manzili yo'q tomon chopmay!
Panoh bergin huzuringda bo'lay toki,
Dahriylarning dargohidan qo'nim topmay...



OLTIN BALIQ – OY SUZADI OSMONDA...

Oltin baliq – oy suzadi osmonda,
Bahri Ummon chayqaladi – qo'lda may.
Yo'q, Sevgilim!
Unutmoqlik osonmas,
Yashash mushkul muhabbatni o'ylamay...

Qaylardadir yosh to'kyapsan sog'inib,
Ashklar tomar yolg'izoyoq yo'llarga.
Kun keladi, yomg'ir tinib, do'l tinib,
Bir farahli oftob tegar dillarga...

Ungacha bor!
Hali vaqt bor ungacha,
Yig'i to'lgan qabog'ingdan bir o'pay.
Oltin baliq suzib yurar bu kecha,
May ichaman
Tong otguncha.
Faqat may!

AFV

Darbozangni bo'ronlar tepar,
Yomg'ir mushtlar oynalaringga?!
Ostonangda turdim betoqat,
Derazangdan bo'ylamading-a?!

Osmon qovoq uyar. Serzarda
Gulduraklar gurlab ketar so'ng.
Sen yostiqni quchoqlagancha,
Tor hujrangda yig'layapsan ho'ng...

Mendan gunoh o'tdi, ko'p gunoh,
Nahotki, yo'q otmoqqa toshing.
Boshginamdan quyildi, evoh,
Selob bo'lib ketgan ko'zyoshing.

Darbozangni bo'ronlar silar,
Yomg'ir o'par oynalaringdan.
Eng chiroyli damlarni esla,
Titroq kirsin siynalaringga...

Yomg'irbo'yim, qo'ygin, yig'lama,
Kel, tutahsin bu bo'ron dillar.
Ostonangdan ketolmam sira,
Uyg'onsa ham namozshomgullar..
Darbozangni sog'inchlar qoqar.

SOHIBJAMOL

Bemador-u bemajolman,
 Beqaror-u telbaholman.
 Beko'ngil ul bevafo dan,
 Ko'ngil uzib ketmoq mahol -
 Sohijjamol,
 sohijjamol.

Quchog'imga to'ldi g'ussam,
 Qandim kesak bo'ldi tutsam.
 Tuproqlarga botdi tizzam -
 Oyog'imda yo'qdir majol,
 Sohijjamol,
 sohijjamol.

Xilvat bormi, ayo, do'stlar,
 Halovatim ado, do'stlar.
 Hayotimga qadab ko'zlar -
 Hayotimdan ko'zlar zavol,
 Sohijjamol,
 sohijjamol.

Tuproq ko'pgan tor ko'chamda
 Loylar sachradi pochamga.
 Xotima-yu debochamda,
 Ko'zyosh bor-u, yo'qdir visol,
 Sohijjamol,
 sohijjamol.

Ey xushchiroy, suxansiz gul,
 Og'u bo'yi, tikansiz gul.
 Ko'ksimdagi Vatsansiz ul,
 Muhabbatga bo'ldim Diyor,
 Sohijjamol,
 sohijjamol...

KETMA

Yog'dular chekingay ketsang, sevgilim,
 Glyohlar qaqragay qadim ochunda.
 Ko'nglim orom topmas, halovat dilim,
 Sarvibo'y malaklar kelsa Mochindan...

Axir senga zorman, muhtojman, qara,
 Sensiz xilvatlarda yashringan qorman.
 Shafaqlar bo'zarnas, tong otmas sira,
 Axir men xurshidi Parvardigorman...

Qadamlar toptagan, ey, mungli gulim,
 Hayot davom etsin qadim ochunda.
 Sen yo'q, huvillaydi bu dunyo dilim,
 Tushun! Sen ham meni bir bor tushun-da...

SOG'INARSAN

Bahorim,
shodlanib ochmaysan quchoq,
Anhoringdan toshsa asov toshqining.
Nahot...
etak bilan oyni berkitmoq -
Yashirmoqlik mumkin sog'inch ashkini?

Ko'ngling ham bexabar.
Ko'ngling bor menda,
Tokay xabarsizsan o'zing bu sirdan?!
Muhabbat ufurar nigohlaringda -
Shamolni o'tkazib bo'lmas g'alvirdan.

Xushnud qol!
Parishon boqmagil keyin,
Kunlaring rang qo'shsa hijron rangiga.
Kipriging uzilar sog'inib meni,
Buncha zulm etma kipriklaringga.

BOSHGINAMDAN UCHGAN
HUSHMI, LAYLAKMIDI...

Boshginamdan uchgan hushmi, laylakmidi?
Yo bo'ronlar adashtirgan ko'ylakmidi?
Tizza tashlab mushtim urdim tuproqlarga,
Ism-u jonim do'nib ketdi titroqlarga.
Qodir Xudo, berganing shu yurakmidi,
Axir menga shundayin ishq kerakmidi?

Maydonlarni to'ldirgan bir qulun edim,
El emasdim, sel emasdim, quyun edim.
Ilugun nega yiroq ketdim shitoblardan,
Hech bir chora topolmadim kitoblardan?!
Yoki tanho ilinjim shul bilakmidi,
Axir menga shundayin ishq kerakmidi?

G'ussam tomib, yantoqlar ham silkindilar,
Hodamda ming qiyofa berkindilar.
Umid bergin yashamoqqa,
Parvardigor,
To'rt tomonim chora bilmas iztirobzor.
Zax berganim ko'krakmidi, kurakmidi?
Axir menga shundayin ishq kerakmidi?

To'zim bilmay to'zmoqlarim ayon endi,
O'z holimga o'zim lol-u hayron endi.

PAYDAR-PAY QOR YOG'AR...

Paydar-pay qor yog'ar panoh izlagan,
Pahmoq chumchuqlarning qanotlari nam.
Qaydan panoh izlay, qayga berkinay,
Mavhumlik mavj urgan ko'zlaringizdan?

Ayondir quyoshni to'solmas tanga,
Sovuq shamol tegdi yurak yelkanga.
Haror baxsh hislarim ildim yelkanga,
Izg'irinlar yeldi so'zlaringizdan.

Ayoz lashkarlari yoprildi butkul –
Shimoliy qutbdan Farg'ona dovur.
Kiprikka urulib muz qotdi hovur,
Omonlik topmadim muzlaringizdan.

Tig'in yalang'ochlab turar qahraton,
Jonim qaqshatib nish urar qahraton.
Ketdingiz qayrilib, yurak laxta qon,
Nigohim ergashdi izlaringizdan.

Ayting! Gunohimni izladim takror,
Iqrorga qodirman – Qodirga iqror:
Ammo mavhumliklar ichra beqaror,
Oftoblar kulmagan yuzlaringizdan –
paydar-pay qor yog'ar...

Ko'ngilgulim, ko'ngli xarob vayronangga,
Muruvvat qil, boshim ursam ostonangga.
Jon berarim, ostonami, yo'lakmidi?
Qodir Olloh, menga shu dard kerakmidi?..

DO'STGA

Qonlar siyoh, ko'ngil qog'oz bo'lib tursa,
Dil qa'ridan kimdir ovoz berib tursa,
Yelka oshib qarolmasmiz endi, ey do'st,
Ostonada g'amlar kulib-kulib tursa.

Gul unardi sug'orsak ishq dashtlarini,
Ashkimizga karbalolar tashnamidi?!
Daryolarga qo'shdik ko'ngil yoshlarini,
Bilsa baliq, yo'qsa, Holiq bilib tursa.

Sanam oshiq dil ohini ohorlagan,
Sen-u meni qismat qo'li ozorlagan.
Hayot shunday ishqbozor, mushtbozor ekan,
O'zing tortma yelkang quchib qo'lim tursa.

SO'NGSIZ OSMONLARDA...

So'ngsiz osmonlarda, tengsiz ummonda,
Hayot chaqinlari tinmaydi qadim,
Go'zallar tuproqday bisyor zamonda,
Sening yuragingdan najot izladim.

Sevgirang oqqushlar - umid qushlari,
Janub tomonlarga uchdilar ildam.
Tumanlarni yorib, vaqtni to'xtatib,
Mening tushlarimga kirgin, farishtam.

Sanchiqlar ko'ksimga sanchar xanjarni,
Dunyo bog'laridan ketar ishtiyoq.
Oyog'ing ostiga yozib yo'llarni,
Sening visolingni kutgandim mushtoq.

Lek vafo qilmading ko'ngil ardog'im,
Bag'ringa bosganim dilozor bo'ldi.
Seni to'zonlarda kutgan chorbog'im,
Muhabbatzor edi - qayg'uzor bo'ldi.

Bir daraxt bo'ldim-u, zaminni quchdim,
O'kinchlar gulladi kurtaklarimda.
Yig'ladim, ko'zyoshim shabnamni ichdim,
Qolib ketdingmi, ayt, ertaklarimda?

Sen ketding visolga berib xotima,
Bir lahza aylanmay qoldi yer shari.

Olib ketdi seni yo'lkalalar - tasma,
Sevgi shamoli yo'q o'lkalalar sari...
Sen ketding...

KUZ

Bog'lar qimorxona...
Uyulgan qartalar;
Olmalarni bosdi qarg'alar.
Yalang'och daraxtlar - raqqosa qizlar
O'ynar shamollarning xirgoyisiga.

Cho'talchi chol esa bir chetda ma'yus
Tamaki tutatib o'ttiradi kuz!



YARIM KECHA. OY QILAR PARDOZ...

Yarim kecha.

Oy qilar pardozi,

Yuzdan olar paranjisini.

Men esa seni o'ylayman,

Seni hamda Rayhon isini.

Rayhon isi bilan qolarman,

Mayli, oppoq libosga o'ran.

Kuzatishar seni bu kecha

Qurbaqalar aytishib o'lan.

Qo'llaringni bo'yagandirsan

Muhabbatning alvon rangiga.

Balki sen ham aldagandirsan

Tilla baldoqlar jarangiga.

Quvnoq eding, qandayin quvnoq,

Quvroqmidim o'zim ham yoxud.

Endi kimga tutqunsan, aytgin,

Menga tutquch bermagan ohu?

Yarim kecha.

Bezabon xayol,

So'ylab berar sening haqingda.

Parizoda bo'larding, balki,

Mening sevgi mamlakatimda.

Lekin xayol... Hammasi xayol,
Kokillarin yer o'pgan suluv.
Baxting tilab qo'lim ochmayman,
Hovuchimga to'lib qolar suv.

Yarim kecha... Oy qilar pardozi.



TOG'LARGA URILIB...

Tog'larga urilib gumburladi ko'k.
 Hasrat yog'averdi yomg'irdek sim-sim.
 Oyog'ing ostiga shartta tushdim cho'k,
 Yoningda qolmoqqa bermading izn.

Hasrat yog'averdi gullagan bog'ga,
 Ilinj kurtaklari sindimi, yo Rab.
 Kiprigimga qadar botdim gunohga,
 Kiprigimdan tomgan sevgimni o'ylab.

G'ussa toshib bordi qaboqlarimdan,
 Qismat xaritasin chizdi Yildirim.
 Dunyo nahot shunday to'zg'in yaralgan,
 To'zonli bog' yanglig' to'zdim, sevgilim.

Bir titroq titratdi tirnog'im qadar,
 Bir tulpor depsindi ko'ksimda bejo.
 Adashgan ajnabiy kabi darbadar,
 Adashgan sevgimga ochmading quchoq

Dildorim,
 dilimga dor ayladingmi,
 Sochingni yel kabi tortqilab o'tsam.
 Mendan pana qilgan muhabbatingni
 Kimlarga asrading, ey, go'zal g'ussam?

NAHOT...

Shimoliy qutbda muz,
 Janubiy qutbda muz –
 Suv bo'lib oqadi ming yillik muzlar,
 Yaqinlashib borar ekvator sari.

Yerga otadi o'zini
 Somon yo'llarida adashgan yulduz –
 Samoda qoldirib oppoq izini.

Tong chog'in belgilab har kuni,
 Kun bilan tun topishar diydor.
 Tundek bo'lolmaysanmi?
 Kunduzdek bo'lolmaysanmi?
 Yulduzdek bo'lolmaysanmi,
 Ko'ngli muzdan-muz, dildor?



GULNOZ

Tun etagin qoqdi samoga,
Yulduzlari to'kildi sharros.
Oy dumalab ketdi havoga,
Oy yuzingni sog'indim, Gulnoz.

Menga tinchlik bermas xotirlar,
Ko'kragimda bir qush potirlar.
Senga aytolmagan satrlar,
Endi kinga ilindim, Gulnoz.

Suygan edim balki bemavrid,
Kuygan edim balki bemavrid.
Ko'zlarimdan terib marvarid,
Muhabbatga sig'indim, Gulnoz.

Xushro'ylarga xushomad udum,
Duch kelganga she'rlar o'qidim.
Erta qo'ldan ketgan yoqutim,
Juda qadring bilindi, Gulnoz.

Ishq bir tanga, mehr bir tanga,
Ko'kragingdan ketsa alanga.
Sevaman deb aytgan eding-a,
Shu so'z bilan ovundim, Gulnoz.

CHO'LPONIM...

Cho'lponim, osmoning menga tor keldi,
Osoyish topmadim oqshomingda ham.
Yoningda chaqnagan yulduz yo'q endi,
Senga qaytolmasman qancha imlasang...

Harchand surat berma ehtirosingga,
Umidgo'y hislarning tutsang-da aksin.
Mavhumlik mavj urgan mening yuzimda,
Topmog'ing gumondir bir qatra taskin.

Nasimlar chayqalsin ismingni aytib,
Chechaklar iforing tutsin qo'shqo'llab.
Bahorim, yoningga bormasman qaytib,
Menga berkilgandir bahoriy yo'llar...

Taqdir taqdirlamas bizni hech qachon,
Tadorig ham etmas, ato etmas baxt.
Axir ko'zlaringda so'ngan hayajon,
Axir nigohingda bitgan harorat!

XOTIR DARAXTI

Xotir daraxtini silkiyotgan kim?
Sog'inch o'rimaladi hazin yaproqda.
To'kilgan tut kabi ezildi qalbm,
Tutlar g'arq pishganda Qaynarbuloqda...

Qushlar ko'kda suzar, qanoti eshkak,
Dili siyoh bo'lgan giyohlar mahzun.
Ammo chorlayverar meni o'tmishga,
Iloniz soylarga o'qilgan afsun...

Majnuntol ostida yangragan kulgu,
Birinchi bo'salar qandayin odmi.
Menga azob berar, bermaydi uyqu,
Arg'imchoqlar uchgan qizchaning yodi.

Muhabbat degani bor butun tahqir,
Halog'at balolar ildi bo'yninga.
Bir chala shoirmi g'o'r bilib taqdir,
Bir gala taloto'p soldi qo'yinga.

Shungacha ko'zlarim ishqni ko'rgandi,
Shungacha yarqiroq edi peshonam.
Dimog'im harir bo'y bilan to'lgandi,
Quchog'im qalampirunchoqlar bilan...

PAXTA

Quyosh qumsoati to'kilar tinmay,
Osmon mavjlanadi, bulutlar to'lqin.
Yellar tebrantirgan nafarmon gulday,
G'o'zalar egatga to'kadi ko'rkin.

Qiyozlar qiyalar tashnaliklardan,
Shudringni qo'msaydi tillaqo'ng'izlar.
Yulduzlar teradi bo'ztuproq yerdan
Yuzlari oftobdan qoraygan qizlar.

Ulkan taroq kabi ufqqa ag'naydi
Jo'yaklar – mag'ribga sanchilgan nayza.
Men sening yoningdan ketgim kelmaydi,
Sen esa ko'nglinga parvo qilmaysan...

Shonalar birma-bir to'kilar kuzlab,
Chanoqlar changallab yotar dilimni.
Sog'indim, men hamon yuribman izlab
Uvatlarda qolgan nigohlaringni...

Armon daraxtini silkiyotgan kim?
Hijron o'rmaladi hazin yaproqda.
Majnuntol shoxiday egildi qaddim,
Majnunga aylandim... Qaynarbuloqda...

KUZ

Yog'iye dek yopirilib kelar qarg'alar,
Yaproqlar urhodek o'rlaydi ko'kka.
Isyonkor daraxtlar saf tortib lashkar,
Yalang'och qilichin ko'tarar tikka.

To'zon tintib chiqar bog'larni tinmay,
Osmonni larzaga keltirar kimdir.
Farzandin urushdan kutgan onaday,
Ma'yus yosh to'kadi keksa noyabr!



ALDAMCHI QIZ

Laylomisiz, Zahromisiz, Uzromisiz,
Siz sochlari oqib turgan daryomisiz?
Bu dunyoning hurlaridan aytromisiz?
Aldamchi qiz, siz baribir aldamchisiz!

Nigohingiz ko'zlarimdan topdi qo'nim,
Endi jonim, ayrilmoqqa yo'qdir ko'nim.
Kechammisiz, ertammisiz, yo bugunim,
Aldamchi qiz, siz baribir aldamchisiz!

Bochingizda oy nuriday harir ro'mol,
Tegrangizda Hilol yanglig' tutdim savol.
Ay gulg'uncha, siz bunchalar topmay kamol,
Aldamchi qiz, siz baribir aldamchisiz?!

Bovchi kelar darbozangiz zulfin qoqib,
Ranjigandek bo'larsiz-da simlar qoqib.
Aldamchiga aldovlari bo'lar raqib,
Aldamchi qiz, siz baribir aldamchisiz!

Kimga qiyo boqmay kimga tutquch bergan,
O't yonmagan ko'ngillarga o'tqich bergan.
Ismni ham aytmay turib, o'pich bergan...
Aldamchi qiz, siz baribir aldamchisiz..

DORILFUNUN

Dorilfunun...
 Darmonim qurir –
 Azalmeros ilmi tolibman.
 Dilim bandi etgandi g'urur,
 Kelganningni sezmay qolibman...
 Gullar sochib, iforlar sochib,
 Ko'klam ko'rkin ochgan chog'ida.
 Qaydan paydo bo'lding, bilmadim,
 Qahraton dil kulliyotida?!
 Ko'zlar ko'zga to'qnashdi bir zum,
 Chaqin urdi bor vujudimni.
 Toliblikdan tolib men bugun,
 Ishqqa tutdim ixtiyorimni...
 Hayot borin to'kkan hotamtoy,
 Xotima yo'q iltifotiga.
 Xush kelibsan, ey, pari, xushro'y,
 Muhabbatning kulliyotiga.
 Muruvvat qil, ko'zlaring haqqi,
 Ko'zyoshlarim to'g'onlar buzgan.
 Nima qilay, dardim qolmadi
 Sen haqingda o'ylashdan o'zga...
 Dorilfunun.
 Darmonim qurir...

QALANDAR EPKINLAR

Qalandar epkinlar entikdi birdan,
 Namchil qaboqlarga shudringlar qo'ndi.
 Maysarang kipriklar tozardi kirdan,
 Girdobga aylandi kulguchning o'rni.
 Yodimda qo'zg'oldi muhabbat zayli,
 Shuurimda chaqintosh kabi chaqnading.
 Dilgir yuragimni o'rab chirmaydi
 Shamolga shamoyil bergan sochlaring.
 Ko'ksimni titratding, ey shirin xotir,
 Afsungar afsunin qaytargan jodu.
 Bahorni bahramand aylagan yomg'ir,
 Olamni alamdand aritgan kulgu!
 Ko'nglimiz ishq bilan bog'langan edi,
 Anduhlar chiroyli, ko'zyoshlar go'zal.
 Lablaring labdonga aylangan edi
 Ko'zlarim ko'zguga aylangan mahal.
 Sevgilim, sog'inib tug'yonlar urdim,
 Afsuski, ro'yodek kechdi barchasi.
 Bargardon faslar davronin surdim,
 Yoningga bormoqqa qilolmay jazm.
 Qalandar epkinlar entikdi birdan...

XALQONA

Tog'lar boshi hanuz oq qor –
Yor, dilingiz hamon muzdir.
Har yon gullar sochgay bahor,
Bilganingiz faqat kuzdir.

Yuragimga tekkan olov –
Sanchilgan o'q yomon so'zdir,
Tig' ursa-da so'zlaringiz,
Tinglamasdan yurolmayman.

Axir sizni birovlariga
Bergim kelmas, berolmayman!
Vido aytib ketgan olis,
Laylaklar ham qaytib keldi.

Sog'inchlarga to'lib ketgan
Qo'shiqlarin aytib keldi.
Nahot malol kelgan bo'lsa
Qo'shiqlarim sizga endi?

Jilov tortib ko'changizga
Ot kishnatib borolmayman.
Axir sizni birovlariga
Bergim kelmas, berolmayman!

Gul ulashib keldim, ko'ring,
Qancha qosh-u qalamlarga.

NIGOHINGGA YAYDOQLAR INDI...

Nigohingga yaydoqlar indi,
Qalb sathingda do'ndi Karbalo.
Ko'zyoshlarim to'solmay endi,
Dildor, shalabboman, shalabbo.

Uyga kirsam har tun beuyqu,
Yakandozlar to'shaydi qayg'u.
Umrin istar faqat visol-u
Diydor, shalabboman, shalabbo.

Go'yo og'u berib bilmasdan,
Umrin poymol etdingmi qasddan?
Bir bor malham tutib kelmassan,
Ag'yor, shalabboman, shalabbo.

Aybim nadir bag'rim qonlading,
Jondan o'tdi intiqomlaring...
Yo'qmi edi soyabonlaring,
Takror shalabboman, shalabbo.

Hajring – qaysar Qays edim yengdi,
So'ngagimdan so'ng qalam yo'ndi.
O'ldirdi ishq, ko'zlarim endi –
G'assol, shalabboman, shalabbo.

Qo'l ushlashib keldim, ko'ring
Nozi bitmas sanamlar-la...

Dil bermadim, yo'l bermadim
Izhor to'la kalomlarga,
Lek sizga deb chaman ichra,
Alvon gullar terolmayman.

Narvon kerak osmon qadar
Otangizning dimog'iga.
Yuz bosaman men onamning
Qo'llarining qadog'iga.

O'ylab-o'ylab yetolmayman
O'ylarimning adog'iga.
Malikam deb atayman-u,
Tojmahallar qurolmayman.

Netay, sizni sultonlarga
Bergim kelmas, berolmayman!

KULIB BUZDING TURMAKLARINGNI...

Kulib buzding turmaklaringni,
Yelkang osha quyildi daryo.
Ko'zlaringga ishq ayladi jo
Binafsharang ko'ylaklaringni.

Gul atriga ko'mildi olam,
Ikki qushdek potirladi qalb.
Asta bosding lablaring lab,
Kashf etmoqni boshladim men ham.

Bizda edi shodliklar bari...
Ismim aytding takror va takror.
Quchog'imga to'ldi navbahor
Va sevgining daqiqalari...

So'ngra...
Yaxlar bosdi ochunni,
Garchi baxtli edik bu oqshom.
Turmagingni buzgandek oson,
Buzib ketding mening ko'nglimni.

RUHIMNING KIMSASIZ BURCHAKLARIDA...

Ruhimning kimsasiz burchaklarida
Bir tug'yon yasharkim – ismsiz tug'yon.
Olamning eng og'ir kulfatlariga
Farah so'zin qo'shib kuylar yonma-yon.

Devona istak bu, betushov xayol,
Qonimda portlagan vulqon shovqini.
Biror kim meningdek surmas bemalol
Azobdan jizg'anak ko'ngil shavqini.

Shukurki, qadrsiz olmos-u tilla...
Oh ursam Tangrining dargohi ulkan.
Ishq ehson etibdi boshimni silab,
Ilohiy qo'l bilan yaratgan egam.

Ammo so'z demoqqa bormikan haddim,
Mayga mayl berdim, ishqqa she'r ulab.
Besamar aytilgan so'zlarim haqqi,
Meni kechirsa bas telba tuyg'ular.

Anglab yetolmadim bu qanday siyrat,
Shodlig-u g'am do'nar kurtaklaridan.
Yashab o'tsam kerak endi toabad,
Ruhimning kimsasiz burchaklarida.

TONG OTADI...

Tong otadi, harir ko'ylaging
Mavjalarida o'ynaydi shamol.
Ma'yus tortib kimni o'ylading,
Bu subhidam, ey sohibjamol.

Xirgoyilab boshlading qo'shiq,
Alyor aytib o'tgan kunlarga.
Kulguchingdan shabnamlar toshib,
Ashklar tomda nastarinlarga.

Yo'l qarading. Uzoq yo'l kutding,
– Kel. (G'ussalar yopirildi qaydan?)
Shivirlaring opqochdi epkin
Ikki labing tutashgan joydan.

Ranjimagin, ey sohibjamol,
Chetlab o'tar bo'lsam uyingni.
Bolalikda ekan bezavol,
Ishq – dunyoning eski o'yini.

YOMG'IR

Yomg'ir, mana, bag'ringa yog'gil,
O'chirgil dil tug'yonlarini.
Sendan o'tinch so'radi ko'ngil,
Hayda to'zgan to'zonlarini.

Yomg'ir, mana bag'ringa yog'gil
Alvon rangli lolalar uzra.
Mung'aygancha ko'zyoshingda dil,
Yalanglikda qolgan bir hujra.

Yomg'ir, mana, bag'ringa yog'gil,
Orom olsin bu otash yurak.
Hukm odil bir kun o'zim ham,
Yomg'irlarga aylansam kerak.

Yomg'ir, mana, bag'ringa yog'gil,
Bir bo'laylik va yonib kuylay.
Sen yuzimdan gul kabi o'pib,
Men ko'zingga termulib o'lay.

Yomg'ir, mana, bag'ringa yog'gil...

ENG MAHZUN QO'SHIQLAR
TO'QISHDI QUSHLAR...

Eng mahzun qo'shiqlar to'qishdi qushlar,
Bog'lar to'lib-toshdi siniq ohangga.
Ko'ksimning og'riqli yeriga mushtlab,
Mushtumni bo'yadim anvoyi rangga.

Nasimlar chayqalib esdilar dilgir,
Xazonlar to'kildi bosilgan izga.
Bilimam, necha fursat (balki yuz yildir),
Sahroyi daraxtdek mudom yolg'izman.

Ammo qarorim shu – bitguncha umrim,
Toki ishq haqida surmasman xayol.
Qadrim to'zonlarga sochganingiz chin,
Sadoqat neligin unutgan ayol.

Mana, sokin tortgan kuzlar qo'ynidan,
Potirlab uchadi sariq kaptarlar.
Men sizni unutdim deganim sayin,
Alamnok baytlarga to'ldi daftarlar.

Baridan ogohsiz – yuraksiz kulib,
Umrin aylansa-da zer-u zabarga.
Nechun ketmadingiz ismingiz yulib,
Xazondek o't qo'yib xotiralarga?!
Endi qaytsangiz ham ochmasman quchoq,

Muruvvat kerakmas, qilmangiz rahm.
Sevmayman!
Sevmayman men sizni, biroq
Bir so'z deyolmaydi duduq yuragim.

SHAVKAT RAHMON

Shunday hayqirayki, yirtilsin ko'ksim,
Shamoli sindirsin soxtalik jomin.
Ummonlar chayqalsin, tog'lar tiz cho'ksin,
Toki aytar so'zim xalq bo'lsin, omin!

Ming mayda orzuni quvmog'im shartki,
Yurakdan bir istak topolsin qo'nim.
Bu tarqoq dunyoda shunday yashayki,
Elni birlashtirsin hatto o'limim!

"AKALAR"

Tap tortmay gap sotib yurgan akalar,
G'ururin shart sotib yurgan akalar.
Ilonning oyog'in ko'rgan akalar,
Chiqing, maydonlarda ko'raylik sizni!

Yolg'iz yorim Xudo, yotga yormasman,
Tupuk so'zingizga xaridormasman.
Mening a'molim bor, amaldormasman,
Chiqing, maydonlarda ko'raylik sizni!

Bir yulduz so'nmagay hech bir daraksiz,
Go'yo o'yingizda osmon, falaksiz.
Kunduz tunab yotgan ko'rshapalaksiz,
Chiqing, maydonlarda ko'raylik sizni!

Biroz beandisha, qaysarligim rost,
Ko'nglim xushlamasni qilmasman e'zoz.
Ammo atirgulg tuflamasman nos,
Chiqing, maydonlarda ko'raylik sizni!

Xilvatdan ig'volar uyub to'ymaysiz,
Yoki tinch o'larga qo'yib-qo'ymaysiz.
Sizga o'q uzmayman garchi o'lmaysiz,
Chiqing, maydonlarda ko'raylik sizni!

HALI BOLA EDIM...

Hali bola edim qayg'u bilmagan,
Chapani dil edim va yalangoyoq.
Hayrat olar edim har bir jilvadan,
Xayol bergan edi umrimga bo'yoq.

Toshqin soy bo'yida toshlar irg'itib,
Oqshom terar edim ko'kdan yulduzlar:
Faqat gaplar otsam, dilim og'ritib,
"Toshingni ter" derdi qishloqi qizlar.

Keyin yillar o'tdi quvlab bir-birin,
Hayot ulg'aytirdi, dard etdi tuhfa.
Qancha tannozlarning qosh-u ko'zlarin
Alqab she'rilar yozdim shunday olifta.

Endi yulduzlar ham tortgandek xira,
Yuragimga tegdi otgan toshlarim.
Ming marta dil berib sezma bman sira,
Go'zallar bevafo ekanliklarin.

Asta jon bermoqda ko'nglim bilan esh,
Umrimga rang qo'shgan pokiza hislar.
Men sizni axtarib topolmadim hech,
Qaylarda qoldingiz, qishloqi qizlar?!

O'zni tillashganday tutmang qush bilan,
Sizning tilingiz bir kalamush bilan.
Sizga insof kirsam agar musht bilan,
Chiqing, maydonlarda ko'raylik sizni!

SAVOL

Kaaatta qorin qo'ysam, taqsam bo'yinbog',
Kelishgan qomatim rom etsa seni.
Istagan ko'rpamga uzatsam oyoq,
Ikkimizga yetsa ko'rpamning eni...

Ishon, butun umr chekmaysan alam,
Jonimgi qaqshatmas yo'qchilik zahri.
Vijdonimni sotsam, boyga aylansam,
Keyin ikkalimiz yashasak baxtli?!



GULYOR

Lablaring g'unchami, gulmidi, Gulyor,
Termulib to'ymasam gulgun yuzingga.
Shunday mayin kulging, shunday beg'ubor -
Kapalaklar qo'nar tabassumingga.

Umrimga nur inar o'ylagan sarim,
Boladek entikib xayol suraman.
Senga ayonmi yo yo'qmi o'ylarim,
Men seni baribir yaxshi ko'raman.

Sening osmoningman, oftobim, oyim,
Ko'ksim hislaringning go'zal vatani.
Bilmaysan, sezmayсан seni Xudoyim
Tanho mening uchun yaratganini.

Yur, olib ketaman Arshi a'loga,
Ko'nsang karomatlar bo'ladi sodir.
Men ming yil sargardon kezib dunyoga,
Ko'zlaring axtarib kelgan musofir.

Dunyo kamol topar har sabog'imdan,
Tamaddun keltirdim, nazar solmaysan.
Nechun qo'llaringdan tutar chog'imda
Hadikdan nariga o'ta olmaysan?!

MUNDARIJA

Zulfiya Mo'minova. "Sevgirang nigoh" kitobi haqida.....	3
Beqiyos qunt ila mohir musahhih.....	7
Chorraha.....	8
Saraton.....	9
Yo'qlov.....	10
Hali yoz kafida erir qo'rg'oshin.....	11
Ketmasayding.....	12
Bir kuni.....	14
Tun. Zulmatni kesar laylakqor.....	15
To'kkan ko'zyoshlaring.....	16
Iqbol Yusufga.....	16
Munajjim.....	17
Yesenincha.....	18
Oqshom nurar - tun yarim.....	19
Hijron.....	20
Xushxabar.....	21
Tavsiya.....	23
Dardga yor, baxtga zor bo'lgan lahzada.....	24
Farmon berildimi - ijro muqarrar.....	25
Qo'shiq.....	26
Sog'inch.....	27
Qushcham, senda ixtiyor.....	28
Ko'ring, vaqt g'ildirak.....	29
Sarob.....	30
Qachon?.....	31
Daraxt shovullaydi.....	32
Marhabo, kelingiz.....	33

Ruhimning kimsasiz burchaklarida...	68
Tong otadi...	69
Yong'ir...	70
Eng mahzun qo'shiqlar to'qishdi qushlar...	71
Shavkat Rahmon...	72
"Akalar"...	73
Savol...	74
Hali bola edim...	75
Gulyor...	76

Munavvar...	34
Bilaman, qachondir meni sevgansiz...	35
Vatan...	36
Pushaymon...	37
Tun shamoli erinchoq izg'ir...	38
Ming yil to'zg'ib yotdi...	39
Ittijo...	40
Ona...	41
Afv...	42
Oltin baliq - oy suzadi osmonda...	43
Sohibjamol...	44
Ketma...	45
Sog'inarsan...	46
Boshginamdan uchgan hushmi, laylakmidi...	47
Do'stga...	48
Paydar-pay qor yog'ar...	49
So'ngsiz osmonlarda...	50
Kuz...	51
Yarim kecha. Oy qilar pardoz...	52
Tog'larga urilib...	54
Nahot...	55
Cho'lponim...	56
Gulnoz...	57
Paxta...	58
Xotir daraxti...	59
Kuz...	60
Aldamchi qiz...	61
Dorilfunun...	62
Qalandar epkinlar...	63
Nigohingga yaydoqlar indi...	64
Xalqona...	65
Kulib buzding turmaklaringni...	67

- 1044 -



1.441 80m

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(5 O'zb)

S 21

S 21 Solijonov, Asror.

Burgutqoya [matn]: she'rlar / A.Solijonov.
- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 80 b.

Adabiy-badiiy nashr

Asror SOLIJONOV

SEVGIRANG NIGOH

She'rlar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahhah: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

© (98) 128-30-04. e-mail: mashhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90^{1/32}

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,5.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №348.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy



SEVGIRANG NIGOH

ASROR SOLIJONOV

Asror Solijonov 1990-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanida tug'ilgan. 2015-yil Farg'ona Davlat Universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. She'rлари "Hayrat buloqlari", "Vodiy guldastasi", "Mehrigiyo", "Biz istiqlol farzandlarimiz" kabi almanaxlarga kiritilgan.

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6473-5-0

